unifikatsiyalangan, markazlashgan holda tayyorlangan detal va uzellarni, shuningdek loyihalashtirish me’yorlarini qo‘llash mahsulot sifatini oshirishga imkon beradi. Standartlashtirish natijasida mahsulotlar nomenklaturasining qisqarishi ixtisoslashtirishning rivojlanishiga, korxonalarning tarmoqlar hamda tarmoqlararo kooperatsiyalashuvning chuqurlashuviga imkon beradi. Ixtisoslashgan korxonalardagi unifikatsiyalangan detallar va agregatlar yuqori unumdorli dastgohlar yordamida, yana aniq o‘lchov asboblaridan foydalanib mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash mumkin. Ishlab chiqarishda iqtisod qilishni oshirish. Unifikatsiyalangan va standartlashtirilgan agregatlar va mashinalar elementlarini qo‘llash mehnat unumdorligini va ularni loyihalashtirish sifatini oshiradi. Bunda loyihalashtirish ishlariga ketadigan xarajatlar qisqaradi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona sistemasini joriy etilganda standart instrument va asboblardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni tayyorlash muddati qisqarib, xarajatlar kamayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, standartlashtirish mahsulot sifatini oshirishda yagona davlat tashkiliy texnikaviy siyosatini amalga oshirish imkonini beradi va mamlakatimiz iqtisodini boshqarishning ilmiy-uslubiy birligini ta’minlaydi. Korxona miqyosida standartlashtirish sifatni boshqarishda tarmoq hamda tarmoqlararo standartlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Standartlashtirish tadqiqot va loyihalashtirish, mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo‘yish, muomala va sotish, iste’mol va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida ham zarur. U mahsulot sifatini yaxshilab, korxona iqtisodini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.P.Ismatullayev,B.M.Axmedov,P.M.Matyakubova,X.Xamroqulov,Sh.A.Tura-yev. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish.Toshkent-2014
2.N.Q.Yo‘ldashev, D.Yusupova. Sifat menejmenti o‘quv qo‘llanma. T-2019
3.Yusupova D.T. Standartlashtirish,sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish. O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2008
4. Zhamoliddinovich, Urinov B. "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.
5.Yo‘ldoshev N.Q.Yusupov S.SH. Menejment asoslari va biznes reja.Toshkent-2016.
6.Yusupova D.T. Badalova M.Mahsulot sifatini boshqarish.O‘quv qo‘llanma.T-2008.

BUGUNGI KUNDA SAYYORAMIZDAGI ASOSIY EKOLOGIK MUAMMOLAR

Abduraximov Bahtiyor Baxodirovich
Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Rejim xizmati boshlig'i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyoda yuzaga kelayotgan asosiy ekologik muammolar, ularni kelib chiqish sabablari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek ularni atrof-muhit va insonlar salomatligiga ta’siri o‘rganib chiqilgan. Muammolarni bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha kerakli ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik muammolar, atrof-muhit, global isish, utilizatsiya, resurs, issiqxona, chiqindi.*

ОСНОВНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НА НАШЕЙ ПЛАНЕТЕ СЕГОДНЯ

Абдурахимов Бахтиёр Баходирович

МЧС, руководитель режимной службы

Аннотация: *В данной статье рассматривабтся основные экологические проблемы, возникающие во всем мире, и их причины. Также было изучено их влияние на окружающую среду и здоровье человека. Содержит информацию по устранению и предотвращению неполадок.*

Ключовые слова: *экологические проблемы, окружающая среда, глобальное потепление, утилизация, ресурсы, теплицы, отход.*

MAIN ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON OUR PLANET TODAY

Abdurahimov Bahtiyor Baxodirovich
Ministry of Emergencies, Head of Regime Service

Abstract: *This article examines the main environmental problems that arise all over the world, and reasons for their origin. They have also been studied for their impact on the environment and human health. Provides information on troubleshooting and prevention.*

Keywords: *environmental problems, environment, global warming, disposal, resource, greenhouse, waste.*

Kırısh

Atrof-muhitning ifloslanishi bugungi kunda mamlakatimiz va butun dunyo duch kelayotgan eng xavfli muammolardan biridir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari asosan tabiiy sabablar va insonlar ta’sirining kombinatsiyasidan kelib chiqmoqda. Buning natijasida yer ekotizimlarida sezilarli darajada o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Atrof-muhit sog‘lom bo‘lmasa, barcha tirik mavjudotlar ziyon ko‘radi. Afsuski, sanoat inqilobi, kapitalizm va qazib olinadigan yoqilg‘iga qaramlik kabi ko‘plab omillar yerga jiddiy zarar yetkazdi. Bunga kerakli choralar ko‘rish zarurdir. Barqaror rivojlanish maqsadlari iqlimga qarshi kurash kabi ustuvorliklarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, dunyoning aksariyat qismi yetarlicha harakat qilmayapti. Ko‘pchilik iqlim o‘zgarishidan xabardor bo‘lsa-da, ular aniq buning sabablar va ta‘sirlari xaqida yetarlicha bilimga ega emas.

Muhokama Va Natıjalar

Adabiyotlarda keltirilgan manbalarga ko‘ra 1880-yildan buyon yerning o‘rtacha global harorati sezilarli darajada ko‘tarildi. 2022-yilda esa o‘tgan yillarga nisbatan dunyodagi beshinchi eng issiq yil bo‘ldi. Buning natijasida okeanlardagi muz qatlamlarining erishi tezlashdi, suv toshqinlari ko‘paydi. Issiqlik to‘lqinlari boshqa xududlarda qurg‘oqchilikni keltirib chiqarmoqda.

Zararli kimyoviy moddalarni atmosferaga chiqarilganda yuzaga keladigan havoni ifloslanishi (avtomobil va samolyot chiqindilari, sigaret tutuni, yong‘in tutuni) va hokazolar tufayli yuzaga keladi. Bu hayvonlar, o‘simliklar va odamlarga jiddiy ta’sir qiladi. Bu shunchalik jiddiyki, 2019-yilda global o‘lim holatlarining 11,6 foiziga ichki va tashqi muhitning ifloslanishi sabab bo‘lgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, havo ifloslanishidan eng ko‘p o‘lim darajasi past va o‘rta bo‘lgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

Suvga zararli moddalar (kimyoviy moddalar, axlat, parazitlar va boshqalar) tushganda, suv ifloslanadi va xavfli bo‘ladi. Ko‘pincha ifloslanish, inson chiqindilari, kimyoviy moddalar, yog‘lar va boshqalarga to‘la tozalanmagan oqava suvlar tufayli yuzaga keladi. Mutaxasislar

ma’lumotlariga ko‘ra global oqava suvlarning taxminan 80% tozalanmagan. Odamlar ichish, yuvinish, suzish va ovqat pishirish uchun foydalanadigan suvni ifloslantirish orqali tozalanmagan oqava suvlar vabo, dizenteriya va hatto saraton kabi hayot uchun xavfli kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Dunyodagi umumiy suvning 3% ulushi chuchuk suv hissasiga to‘g‘ri keladi, achinarlisi shu suvning atiga 1/3 qismigina insoniyat uchun foydalanishi mumkin. BMT hisobotiga ko‘ra, sayyoramizdagi aholining 2 milliardi toza va xavfsiz ichimlik suviga ega emas, 3,6 milliard aholi foydalanayotgan suv manbalari maxsus sanitariya gigiena talablariga ega emas. Qurg‘oqchilik, qishloq xo‘jalik sanoatini to‘g‘ri tartibga solinmagani suv tanqisligini yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘tgan asr davomida dengiz sathi ko‘tarilib bormoqda va so‘ngi yillarda bu ko‘rsatkich har yiliga sezilarli darajada ko‘tarilmoqda. Bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida dengizda sodir bo‘ladigan bo‘ronlar mamlakatlar ichkarisigacha kiradi va suv toshqinlarini yanada kuchayishiga olib keladi. Bu odamlar va yovvoyi tabiat hayotini, shuningdek, yo‘llar, ko‘priklar, suv ta’minoti, poligonlar va boshqalar kabi qirg‘oq infratuzilmasini xavf ostiga qo‘yadi. Dengiz sathining ko‘tarilishi, birinchi navbatda, okeanning isishi va muzliklar va muz qatlamlarining erishi bilan bog‘liq [1].

Yer yuzida yuzaga kelayotgan yana bir muammolardan biri qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan sifatli ekin maydonlari va yaylovlarda degradatsiya jarayonlari sodir bo‘lmoqda. Buning natijasida dunyodagi erroziya ko‘lami ortib bormoqda. Amerikalik olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili ekin maydonlari erroziya tufayli 25,4 milliard tonnaga yaqin tuproq moddasini yo‘qotadi va 6-7 million gektar yer qishloq xo‘jaligi yerlari xisobidan chiqib ketadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tashkilot (FAO) ekspertlarining fikricha har bir gektarning 1/12 qismi uy-joy qurilishi, transport, sanoat va tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalaniladi. Bundan xulosa qilsak, 2020-yilga kelib 410 million gektarga yaqin yerlar shu maqsadlarda ishlatilgan [2]. Dunyodagi shudgorlanadigan yerlarning uchdan bir qismini yarmi shunday foydalaniladi va buning natijasida yerning unumdorligi asosan qayta tiklanmaydigan holatga keladi.

O‘zbekistonning bazi hududlarida tuproq degradatsiyasining faol jarayonlari kuzatilmoqda. Suv resurslari tanqisligi tufayli o‘simliklarni sug‘orishda jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Respublika qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan suv hajmi 1999-yilda qariyb 61,78 m^3 tashkil etdi (1 km hisobida), shundan 56 m^3 suv sug‘orish uchun ishlatilgan. O‘zbekiston hududidan umumiy suv hajmining qariyb 11 foizi, qolgan qismi esa Tojikiston va Qirg‘iziston hududidan olingan suv hajmiga to‘g‘ri keladi [3]. Global iqlim o‘zagarishi natijasida Orol dengizi suv sathining keskin pasayishi Markaziy Osiyo mintaqasida xususan, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Orol dengizi o‘rnida 4 million gektardan ortiq maydonga ega sho‘r - cho‘l hududlari ya’ni Orolqum paydo bo‘ldi.

Orol dengizining qurishi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga katta zarar yetkazdi. Orolda hosil bo‘lgan qum va tuzlar shamol yordamida turli hududlargacha tarqalmoqda. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, yiliga Orol dengizidan havoga 75 million tonnadan ortiq tuzli chang ko‘tariladi. 1960-yildan hozirgi kunga qadar Orolbo‘yida har gektar yerda o‘rtacha 550 kg, ba’zi joylarda 1 tonnadan ortiq sho‘r hosil bo‘lgan. Buning natijada birinchi navbatda, atrof-muhit va tuproqning umumiy sho‘rlanish jarayoni sodir bo‘lmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning

sho‘rlangan hududlari Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari tashkil etmoqda. Bu holat O‘rta Osiyoning barcha Respublikalarida kuzatilishi muqarrar. Tabiiy ekologik muvozanatning buzilishi natijasida, ekinlarni yetishmasligi va tabiiy yaylovlarning holati yomonlashishi: Turkmanistonda 40%, Qozog‘istonda 30-33%, O‘zbekistonda 30%, Qirg‘izistonda 20% va Tojikistonda 19% kuzatildi, ularning hosildorligi esa 3 marta kamaydi [4].

Soha mutaxasislarining hisob kitoblariga ko‘ra so‘ngi 10 ming yil ichida sayyoramizdagi o‘rmonlarning 1/4 qismi yo‘q bo‘lib ketdi. Achinarlisi shundaki ushbu yo‘qotishlarning yarmi so‘ngi 100 yil ichida sodir bo‘lganidadir. Albatta o‘rmonlarni yo‘qotilishiga bir qancha sabablari bor, jumladan, yog‘ochga bo‘lgan talabni ortishi, qishloq xo‘jaligini kengaytirish, iqlimni o‘zgarishi, tuproq eroziyasi, suv toshqinlari va boshqalardir. FAO ning 2022-yilgi o‘rmonlar bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, o‘rmonlarni barqaror boshqarish, mahalliy ishtirokchilarni kuchaytirish va moliyalashtirishni tiklash kabi qadamlar o‘rmonlarni kesishni to‘xtatish uchun zarurdir.

Keyingi navbatda dunyo miqyosida aholi soni va iste’molini ko‘payishi bilan birga aholi yashash joylari qishloq, tuman, shaharlar xam o‘sib bormoqda. Bu esa tabiiy hududlarni kamayishiga olib keladi. Yani qishloq xo‘jaligi yerlarining yo‘qolishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, o‘rmonlarning tez kesilishi va iqlim o‘zgarishi va yovvoyi tabiatning patogenlarining kamayishi asos bo‘ladi. Evropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning shahar hududlarida (2012-2018) yerlarni egallashni o‘rganuvchi tadqiqotda tadqiqotchilar shaharlarning kengayishi asosan ekin maydonlari va yaylovlarga ta‘sir qilishini aniqladilar. Bu esa iqlim o‘zgarishi, ekologik xavf xatar, oziq-ovqat tanqisligi kabi insoniyat uchun asosiy muammolar bo‘lishini takidladilar [5].

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda aholining asosiy istemol maxsulotlari, buyumlar, texnikalar va boshqa barcha sohalarda plastmassalardan foydalanilmoqda. Plastmassani yerga tashlaganingizda, u yo‘qolmaydi; u kichikroq mayda bo‘laklarga parchalanishi mumkin. Mikroplastik sifatida tanilgan bu mayda zarralar suvda, tuproqda, havoda va hatto inson qonida topilgan. Odamlarning sog‘lig‘iga ta‘siri aniq emas, ammo hayvonlarning hayot faoliyatiga zararlarli alomatlari aniqlangan. Plastmassa ham atrof-muhit ekologiyasi uchun asosiy muammo hisoblanadi.

1950-yilda dunyoda yiliga 2 million tonnadan ortiq plastmassa ishlab chiqarilgan. 2015-yilga kelib, bu yillik ishlab chiqarish 419 million tonnagacha ko'tarildi va atrof-muhitdagi plastik chiqindilarni ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

“Nature” ilmiy jurnalida quyidagicha ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda dunyoda har yili taxminan 14 million tonna plastmassa maxsulotlari okeanlarga kirib borib, yovvoyi tabiatning yashash joylari va ularda yashaydigan hayvonlarga sezilarli darajada zarar yetkazmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar kerakli choralar ko‘rilmasa, 2040-2050-yillarga borib plastmassa inqirozi yiliga 29 million tonnagacha o‘sadi. Agar bunga mikroplastmassalarni qo‘shadigan bo‘lsak, okeandagi plastmassaning umumiy miqdori 2050-yilga kelib 600 million tonnaga yetishi mumkin.

Ajablanarlisi shundaki, “National Geographic” ma’lumotlariga ko‘ra hozirgacha ishlab chiqarilgan plastmassaning 91 foizi qayta ishlanmasligini aniqladi, bu nafaqat hayotimizdagi eng katta ekologik muammolardan biridir. Plastmassaning parchalanishi uchun 400 yil kerakligini hisobga olsak, u yo‘q bo‘lguncha ko‘p avlodlar o‘tadi. Plastik ifloslanishning uzoq muddatda atrof-muhitga qaytarilmas ta‘siri qanday bo‘lishini tasavvur qilib xam bo‘lmaydi [6].

Xulosa

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni atrof-muhit va aholi salomatligi, yashash tarziga misli ko‘rilmagan zararli oqibatlarni keltirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Shundan kelib chiqqan holda sohaga oid ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar orqali odamlar atrof-muhit muammolarining sabablari va ularning salbiy oqibatlarini cheklash yoki tuzatish yo‘llari haqida ko‘proq ma’lumotlar berish kerak. Yangi texnologiyalar, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejamkor texnologiyalar yordamida chiqindilarini kamaytirishga xissa qo‘shish zarurdir.

Ekologiya va atrof-muhitga asoslangan fanlar insonni yashash faoliyati, yerga qanday ta‘sir qilishini yaxshiroq tushunishni taklif qilishi mumkin. Xalq ta‘limi harakatlari va amaliyotlarning atrof-muhitga zararli ta‘siri haqida bilimlarni tarqatadi va atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga qiziqish uyg‘otadi.

Xalqaro hamkorlikdagi sayi-harakatlar ekologik muammolarni yumshatishga yordam beradigan yechimlarni topish va amalga oshirishga harakat qilmoqda. Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlikka ixtisoslashgan tashkilotlar atrof-muhitni ifloslanish va tanazzuldan himoya qilishga e‘tibor qaratadi. Ular inson faoliyati, chiqindilar va xavfli materiallarning ekotizimlarga salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun atrof-muhitni boshqarish va muhofaza qilish choralari bo‘yicha tadqiqot va maslahat berishda asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Foydalanılgan adabıyotlar

1. https://earth.org/the-biggest-environmental-problems-of-our-lifetime/
2. Альбатыров И. Место и роль аграрного сектора в мировой экономике // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2005, № 2, с. 28-30.
3. Тимирова М., Мирзаев С., Юсупбеков О., Салохиддинов А. Оценка сточных вод Узбекистана // Сельское хозяйство Узбекистана. – 2000, № 4, с. 43-44.
4. Салимов Х.В. Деградация Арала – проблема глобальная // Материалы междунар. науч.-техн. конф. «Современные техника и технологии горно-металлургической отрасли и пути их развития», 12-14 мая– Навои, 2010, с. 264-266.
5. https://www.ibm.com/topics/environmental-issues#What+are+the+main+types+of+environmental+issues%3F

IQLIM O‘ZGARISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK TASIRLARI

Toyirov Alijon Yodgor o‘g‘li.
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
Iqtisodiyot yo‘nalish talabasi
”TKTI Shahrisabz filiali O‘quv ishlar bo‘yicha
dekan o‘rinbosari Sh.V.Nasimov

Annotatsiya. *Global iqlim o’zgarishi dunyo bo’ylab keng o’rganilmoqda. Bugungi kunda Yer yuzida global iqlim o’zgarishi kuzatilmoqda. Sayyoramizdagi o’rtacha harorat so’nggi o’ttiz yilda bir darajaga ko’tarildi. Yangi hasharot va zararkunanda turlari paydo bo’ldi, bu esa katta muammoga aylanmoqda. Shu sababli, tadqiqotda iqlim o’zgarishining sabablari ko’tariladi, bu esa insoniyatning tabiatga uzoq vaqt davomida aralashuvi bilan bog’liq.*

Kalit so’zlar: *Global iqlim o`zgarishi, ekologik muammolar, Holosen davri, BMT konventsiyasi, sanoat tarmoqlar, iqlim o`zgarishi.*